Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

EPISTOLYAR JANR VA SENTIMENTALIZM: BADIIY MAKTUBLARDA KECHINMALAR TASVIRI

Xolmatova Nigina Abdusamad qizi
E-pochta: niginafayzullaeva4@gmail.com
+998904001026
https://doi.org/10.5281/zenodo.23170429

Annotatsiya

Ushbu maqolada XVIII asr adabiyotida ustuvor o‘rin egallagan sentimentalizm oqimi hamda epistolyar janrning o‘zaro sintezi va badiiy-falsafiy asoslari tadqiq etiladi. Sentimentalizm estetikasida insonning ruhiy olami, his-tuyg‘ulari va ichki kechinmalarini aks ettirishda maktub shaklining tutgan o‘rni hamda uslubiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Badiiy maktublar shaxsiy e’tirof, subyektiv psixologizm va qahramon ruhiyatining eng nozik qirralarini ochib beruvchi vosita sifatida baholanadi. Maqolada jahon hamda o‘zbek adabiyoti namunalari misolida maktub-romanlar va maktub shaklidagi asarlarda qahramonlar kechinmalarining badiiy tasviri, muallif va qahramon munosabatlarining o‘ziga xosligi va ushbu janrning adabiy-estetik takomili yoritib beriladi. Tadqiqot xulosalari adabiyotshunoslikda epistolyar nasr va psixologik tahlil mahoratini o‘rganishga nazariy va amaliy hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: epistolyar janr, sentimentalizm, badiiy maktub, kechinmalar tasviri, psixologizm, subyektivizm, maktub-roman, poetika.

Sentimentalizm oqim sifatida XVIII asarning ikkinchi yarimga kelib namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, ushbu oqimning badiiy talqin shakli namunalari eng qadimgi adabiiy manbalarga borib taqaladi. Sentimentalizm – fransuzcha “sentiment” sezgi-hissiyot degan ma’nolarni anglatib, Angliyada paydo bo‘lgan adabiy yo‘nalish hisoblanadi. “Ushbu oqim feodal tizim sarqitlariga qarshi kurash tarzida yuzaga kelgan bo‘lib, unda oddiy kishilarning oliyjanobligi, qalbi va ichki kechinmalari tasvir markaziga olinadi. Chunki, klassitsizm adabiyotida kishilarning ichki dunyosi va hissiyotlari tasviriga yetarli e’tibor qilmagan, oliy ijtimoiy tabaqa vakillari hayotini bo‘rttirib aks ettirgan va adabiyotni “uch birlik” (harakat, joy, vaqt) qolipiga solgan edilar. Sentimentalistlar klassitsizm qoidalarini, uning qoliplarini “buzdilar”, aql-idrokdan his-tuyg‘uni ustun deb bildilar. O‘rta va quyi sinf vakillari hayotini, ma’naviy jihatdan yetukligi, pokligi, odamiyligini chuqur tasvir etdilar va ana shu jarayonda yuqori tabaqa vakillari dunyosining tubanligi, jirkanchligini fosh etdilar.”[1] Sentimentalizm adabiiy yo‘nalishining qadim Sharq va G’arb manbalarida tarixiy ildizlari o‘z aksini topgan bo‘lib, ularni afsona, rivoyat, xalq dostonlari, folklor manbalarida va klassik asarlarda uchratish mumkin. Masalan, Sharq adabiyotining klassik namunasi bo‘lmish “Shohnoma” (Firdavsiy) asari dramatic vaziyatlar, tragik holatlar, sentimental syujet va qahramonlarga boy. Xuddi shunday G’arb adabiyoti folklori namunasi bo‘lmish “Zigfrid haqida qo‘shiq” ham to‘laligicha sentimentalizm oqimi namunasi bo‘la oladi desak adashmagan bo‘lamiz.

[1] H.Umurov “Adabiyotshunoslik nazariyasi” - A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004, 251-bet.

Sentimentalizm oqimining yorqin namoyondalaridan biri bu Lorens Sterndir (1713–1768). Uning “Sentimental sayohat” asari sentimental adabiyotning ilk namunasi hisoblanadi. Sternning asarlari o‘ziga xos uslubda yozilgan bo‘lib, unda qahramonlarning ichki his-tuyg‘ulari va ruhiy holati qalamga olingan. U voqealardan ko‘ra, odamlarning qalbida bo‘layotgan o‘zgarishlarga ko‘proq e’tibor beradi va hissioyotni “kult” darajasiga olib chiqadi. Masalan, “Sentimental sayohat” asarida bosh qahramon etib sayohat qilmay, balki o‘z his-tuyg‘ulari bilan sayohat qiladi, ya’ni uning ichki dunyosi ko‘rsatiladi. Asar qahramoni etib Shekspirning “Gamlet” tragediyasidagi personaj (telba) Yorik tanlangan. Buning asosiy sababi klassitizm adabiyotiga bo‘lgan nafrat va tanqidlar muallifning tilidan emas, aynan asar qahramoni tilidan berilgan. Yorik – protestant mazhabiga mansub ruhoniy. Ma’lumki, sintementalizm adabiy yo‘nalishining ko‘pgina namoyondalari ham aynan ruhoniylardir. Chunki, ular olamni anglashda intellektga emas, balki, hissiyotga tayanadilar.

Asar syujetiga to‘xtaladigan bo‘lsak, asarda Yorikning Yevropa bo‘ylab sayohati asosiy syujet liniyasini tashkil etsa-da, lekin Stern u orqali o‘z falsafiy qarashlari, ijtimoiy tanqidlari va fikrlarini berishga erishdi. Sternning ijodi XVIII asrda insonning ichki kechinmalarini, hissiyotlarini adabiyotda ko‘rsatishda katta o‘zgarish olib keldi. Uning asarlari boshqa Yevropa va Rossiya yozuvchilariga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Sentimentalizm adabiiy yo‘nalishining badiiy konsepsiyalari ilk bor L.Stern tomonidan yaratilgan bo‘lsa, ayni yo‘nalishning falsafiy asoslari quyidagi faylasuflar nomi bilan bog’liqdir: Jorj Berkli (1685 - 1753) va David Yum (1711 - 1776). “Berkli falsafasiga ko‘ra “sezgi – yagona reallik”. Hissiyot - borliqni idrok etishning yagona quroli va bashariyatga uni Xudo bergan. Mana shu ilohiy sezgi vositasida anglangan hamma narsa – hodisalarning asosi ham Udir. Berkli falsafasi o‘sha davrlarga kelib Yevropada kuchaya boshlagan materialism, ateizmdan dinni himoya qilish yo‘lidagi fikrlarning natijasi sanaladi.”[2] Uning falsafiy qarashlari Yevropada subyektiv idealizm nomi bilan mashhur bo‘lib, bu nazariyalar faylasufning “Ko‘rish nazariyoti tajribasi” (1709), “Insonning bilish tamoyili haqida risola”(1710), “Gilos va Filonus o‘rtasidagi suhbat”(1713) kabi asarlarida yoritilgan.

Angliyalik faylasuf David Yum ham J.Berkli falsafasining muhlisi va davomchisi bo‘lib, nazariy qarashlarini o‘zining “Inson tabiati haqida risola” asarida yozib qoldirgan. “D.Yum falsafasiga ko‘ra, ham borliqni idroklash manbayi subyekt sezgisi yoki olgan taassurotidir. Shuning uchun Yum materialistlarning inson sezgisi borliq va inson munosabatlari natijasidir degan qarashlarni inkor etadi. Bilimning manbayi nazariy izlanishlar emas, e’tiqod degan qarashni qat’iy tarzda ilgari suradi. Shu tomonlari bilan David Yum falsafasi inson botini va psixologiyasiga ham daxl qiladiki, bu g’oya uning izdoshlari tomonidan keyinchalik davom ettirilgan”.[3]

Sentimentalizm oqimining estetikasini quyidagi kategoriyalar tashkil qiladi:

- Voqelikni hissiy idroklash;
- Intelektni inkor etish;
- Tabiatga intilish, sayohat;
- Oddiy xalqqa yaqin bo‘lishga intilish, ularning manfaatlarini o‘z manfaatlarida ustun deb bilish;
- Shaharsozlik va industriya taraqqiyotidan qochish, provinsial turmush sharoitiga intilish; mexanizmlashish tanqidi;
- Pesssimizm (tushkin kayfiyat, yig’loqilik, ko‘p xollarda o‘z joniga qasd qilish).

[2] U.Jo’raqulov, K. Hamroyev “Qiyosiy adabiyotshunoslik” – Toshkent, 2020, 182-bet.
[3] O’sha asar 183-bet.

Sentimentalizm oqimi metod darajasigacha ko‘tarilmagan, ammo bu oqimning ham adabiyotdagi o‘rni beqiyos. Ushbu oqimga tegishli adabiiy-badiiy asarlar o‘zining samimiyligi, soda va ravon uslubi, dil izhorlarining, ichki kechinmalarning go‘zal bayoni va tabiat tasvirlariga boyligi, shuningdek, ushbu tasvirlar inson botin olami bilan parallel ifodalanishi bilan o‘ziga xosdir. Bu samimiy tuyg’ularni ifodalashning eng maqbul yo‘li esa maktublardir. Shuning uchun ham maktublar va sentimentalizm yo‘nalishi bir-biri bilam chambarchas bog’liqdir. Shu kabi uslub va yo‘nalishda yozilgan asarlar sirasiga jahon adabiyoti adiblaridan Sharl Lui de Monteskyo “Fors nomalari”, Jan Jak Russo “Yuliya yoki Yangi Eloiza”, “Iqror”, “Yangi xayolparastning sayri”[4], Iogann Volfgang fon Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari”, Anton Pavlovich Chexovning “Vanka”, Ivan Turgenev “Yozishma”, Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning “Kambag’allar”, “Oydin tunlar” asarlari, o‘zbek adabiyotida esa O‘lmas Umarbekov “Sevgim-sevgilim”, O‘tkir Hoshimov “Cho‘l havosi”, Iqbol Mirzoning “Bonu”, Abduqayim Yo‘ldosh “Sunbulaning ilk shanbasi”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Hijronim mingdur mening”, “Men – sensiz, sen - mensiz” kabi asarlar misol bo‘ladi. Bunday asarlarda epistolyar uslubning ham, sentimentalizm oqimining ham o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Maktublar shaxsiy hissiyotlarni, qahramonlarning ichki kechinmalarini bevosita aks ettirish imkonini beradi. Sentimentalizmning asosiy xususiyati bo‘lgan qalb harakatlari, nozik tuyg’ular va insonning ma’naviy dunyosiga e’tibor aynan maktub orqali yorqin namoyon bo‘ladi. Sentimentalizmda aql-idrokdan ko‘ra hissiyotlar ustun qo‘yiladi, maktub esa hissiyotlarni ifodalash uchun eng qulay vositadir.

Sentimentalizm adabiyotida yozilgan asarlar va maktublarda lirik ifoda tarzi, kuchli emotsional bo‘yoqdorlik, his-hayajonni ifodalovchi vositalar (xitoblar, ritorik so‘roqlar, undalmalar) keng qo‘llaniladi. Bunday ifoda tarzi sentimentalizmning “tuyg’ular ifodasi”ni yaqqol aks ettiradi. Bundan tashqari, tabiat tasviri orqali qahramonning ruhiy holati o‘zaro uyg‘unlikda beriladi. Shuningdek, maktublarda yozuvchining “men”i, uning shaxsiy qarashlari, falsafiy mushohadalarining ochiq-oydin ifodalanishi sentimentalizmning muhim xususiyati hisoblanadi. Maktublarning asosiy jihatlaridan biri esa ularning samimiyligi va ochiqligidir. Shu bois, asar qahramonlari o‘z tuyg’ularini bekitmasdan, ro‘y-rost bayon etadilar.

Sentimentalizm davridagi epistolyar adabiyotning badiiy jihatlarini tahlil qilar ekanmiz, bir necha asarlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Samuel Richardson tomonidan 1740-yilda yozilgan “Pamela, yoki mukofotlangan fazilat” romani maktublar shaklida yozilgan birinchi yirik asarlardan biridir. Unda qahramonning ichki dunyosi, ma’naviy izlanishlari maktublar orqali haqqoniy va ta’sirchan tarzda ochib berilgan. Bu asardagi maktublar qahramonning kechinmalarini va fazilat uchun kurashini ifodalashda muhim vosita vazifasini o‘tagan.

Shu kabi, I.V. Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” asarida qahramon Verterning o‘z sevgilisiga bo‘lgan kuchli muhabbatini, ruhiy iztiroblarini va hayotiy qarashlarini aynan maktublar orqali ifodalaydi. Bu asarda maktub nafaqat badiiy shakl, balki qahramon ruhiyatini ochib beruvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, J.J. Russoning “Yangi Eloiza” romani ham maktublar to‘plami shaklida yozilgan bo‘lib, bu janrning sentimentalizm oqimidagi o‘rnini yanada mustahkamladi.

[4] https://uz.wikipedia.org/wiki/Jean-Jacques_Rousseau

Sentimentalizm davrida maktub janri nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ham ega bo‘ldi. XVIII asrda jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlar, burjuaziya sinfi mavqeining oshishi, shaxsning ichki dunyosiga qiziqishning kuchayishi - bularning barchasi maktub janrining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Maktublar orqali odamlar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, jamiyatdagi dolzarb masalalarni muhokama qilish, ma‘naviy qadriyatlar haqida mushohada yuritish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa sentimentalizmning insonparvarlik g‘oyalarini tarqatishda muhim omil bo‘ldi.

Shuningdek, bu davrda maktublar ayollar adabiyotining rivojlanishida ham katta rol o‘ynadi. Ayollar ko‘pincha maktub janrida ijod qilib, o‘z fikr va tuyg’ularini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Xulosa

Demak, sentimentalizm va epistolyar adabiyot o‘rtasidagi aloqalar chuqur va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rdik. Epistolyar shakl bu davrdagi adabiyotning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Maktublarning badiiy o‘ziga xosligi - lirik ifoda tarzi, emotsional bo‘yoqdorlik va samimiylikka intilish prinsiplari - sentimentalizmning asosiy tamoyillariga to‘la mos keladi. Shuningdek, maktublar orqali qahramonlarning ichki dunyosi, ma’naviy izlanishlari, hissiy kechinmalari haqqoniy va ta’sirchan tarzda aks ettiriladi.

Bugungi kunda ham sentimentalizm davridagi epistolyar adabiyot namunalari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, chunki ular insonning botiniy tuyg’ulari - muhabbat, sadoqat, achchiq-shirin kechinmalari haqida so‘zlaydi. Shuning uchun ham bu asarlar hozirgi kitobxonlar qalbida chuqur taassurot qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.Jo’raqulov, K. Hamroyev “Qiyosiy adabiyotshunoslik” – Toshkent, 2020, 182-bet.
2. Dostoyevskiy F.M. 2018. Kambag‘allar. – Toshkent: Davr Press.
3. Dustmuratov Q. 2024. Epistolyar asarlardagi ziddiyatli uyg'unlik. “Ekonomika i sotsium”
4. F.M.Dostoyevskiy tug‘ilgan kunining 150 yilligi. 1971. – Toshkent. Esdaliklar.
5. Qo‘chqorova M. 2009. Maktublar qalb ko‘zgusi. // Jahon adabiyoti 11-son.
6. Щерба, Л. В. Современный русский литературный язык / Л. В. Щерба // Рус. яз. в шк. – 1939. – № 4.
7. Ефимов, А. И. Стилистика художественной речи / А. И. Ефимов. – М., 1957.
8. Бельчиков, Ю. А. Литературный язык / Ю. А. Бельчиков // Русский язык: энциклопедия / под ред. Ф. П. Филина. – М.: Сов. энцикл., 1979.
9. Гроссман Л.П. Культура писем в эпоху Пушкина // Цех пера: Эссеистика. – М.: Аграф, 2000.
10. Shcherba L.V. “Tilshunoslik ocherklar”, 1965, 87-bet.
11. Ефимов, А. И. Стилистика художественной речи / А. И. Ефимов. – М., 1957.
12. Бельчиков, Ю. А. Литературный язык / Ю. А. Бельчиков // Русский язык: энциклопедия / под ред. Ф. П. Филина. – М.: Сов. энцикл., 1979.
13. Baxtin M.M. “So‘z san’ati estetikasi”, 1979, 241-bet.